

“Qizilqum fosforit kompleksi” MChJda milliylik bayrami

// 17.04.2024

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/qizilqum-fosforit-kompleksi-mchjda-milliylik-bayrami>



Ayni kunlarda mamlakatimiz bo‘ylab “Xon atlas” festivali o‘tkazilmoqda. Ushbu festival doirasida “Qizilqum fosforit kompleksi” MChJda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar o‘rtasida “Milliy qadriyatlarimiz – millat ko‘zgidir” mavzusida chorlov tashkil etildi.



O'zbek xalqining asrlik o'tmish madaniyati, urf-odat va an'analari, didi, estetik qarashlari shuningdek, tashqi qiyofa, libos borasida o'ziga xos xususiyatlarini namoyish etish maqsadida tashkil etilgan festivalda korxonaxotin-qizlari ham katta qiziqish va faollik bilan ishtirok etishdi.





"Qizilqum fosforit kompleksi" MChJ Matbuot xizmati